

Havo shari



Bugun biz **texnologiya** va **ijod** olami sari uzoq sayohatga o'tlanamiz. Rangli qog'oz, karton, plastilin va paxta bilan ishlashni o'rganamiz. Bu materiallarning har biri o'ziga xos qiziqarli xususiyatga ega bo'lib, ijod qilishimiz uchun turli imkoniyatlar yaratadi.

Bu materiallar bilan ishlashni yodga olish uchun, keling, qo'lda yorqin va noodatiy buyum tayyorlaymiz.



O'zingiz bilgan usullarni qo'llab, turli materiallardan qanday qilib bitta ishda foydalanish mumkinligini ko'rsating.

Sizga kerak bo'ladi:




- karton, paxta;
- rangli qog'oz;
- qaychi, yelim;
- qalam;
- g'ovaksimon plastilin.

Ish rejasi:

1. Kartondan **havo sharining savatchasini** (trapetsiya shaklida) yasang.
2. Har xil rangdagi qog'ozlardan bo'laklar qirqib oling va ularni yelimlash orqali **hajmli havo shari** yasang.
3. Savatcha va havo sharini kartonga yelimlang. **Plastilindan yo'lovchilar** yasang. **Paxtadan esa bulutlar** hosil qilib, yopishtiring.



Havo sharida parvoz



1



2




3



4



5



6

